

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova,
 O'zbekiston tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
 Farg'ona davlat universiteti
 abdunosirovaozodaxon@gmail.com
Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova,

UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME'MORCHILIK TARAQQIYOTI

For citation: Ozodaxon B. Abdunosirova, Ruxshona A. Abduvoidova. THE DEVELOPMENT OF ARCHITECTURE IN THE BUKHARA KHANATE DURING THE REIGN OF UBAYDULLAH KHAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807304>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoro xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida kechgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Unda xonning bunyodkorlik faoliyati, Mir Arab madrasasining qurilishi, me'moriy uslubi va ta'lim tizimidagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, Mehtar Qosim ko'prigi va boshqa obodonchilik ishlari orqali Ubaydullaxon davrining ijtimoiy taraqqiyot darajasi yoritiladi. Maqola Ubaydullaxonning xalqparvar siyosatini, uning Buxoroning tarixiy taraqqiyotidagi o'rni va madaniy merosini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ubaydullaxon, Buxoro xonligi, Mir Arab madrasasi, Mehtar Qosim ko'prigi, Mirak Said G'iyos bog'i, ilm-fan, me'morchilik, madaniyat, obodonchilik, xalqparvar siyosat.

Абдуносирова Озодахон,
 PHD., старший преподаватель кафедры «История Узбекистана»,
 Ферганский государственный университет
 abdunosirovaozodaxon@gmail.com
Абдувоидова Рухшона,

РАЗВИТИЕ АРХИТЕКТУРЫ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ ВО ВРЕМЯ ПРАВЛЕНИЯ УБАЙДУЛЛА ХАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается политическое, экономическое и культурное развитие Бухарского ханства в период правления Убайдуллохана. Описываются его строительные и архитектурные достижения, включая возведение медресе Мира Араба, моста Мехтара Касима и сада Мирака Саида Гияса. Особое внимание уделено архитектурным особенностям и образовательному значению медресе Мира Араба. В статье раскрывается народолюбивая политика Убайдуллохана и его вклад в историческое и культурное развитие Бухары.

Ключевые слова: Убайдуллахан, Бухарское ханство, медресе Мира Араба, мост Мехтара Касима, сад Мирака Саида Гияса, наука, архитектура, культура, благоустройство, общественный прогресс.

Ozodaxon B. Abdunosirova,

PhD., senior lecturer, department of «History of Uzbekistan»,

Fergana State University

abdunosirovaozodaxon@gmail.com

Ruxshona A. Abduvoidova

THE DEVELOPMENT OF ARCHITECTURE IN THE BUKHARA KHANATE DURING THE REIGN OF UBAYDULLAH KHAN

ABSTRACT

This article analyzes the political, economic, and cultural development of the Bukhara Khanate during the reign of Ubaydullah Khan. It describes his contribution to construction and architecture, including the building of the Mir Arab Madrasah, Mehtar Qosim Bridge, and Mirak Said Giyas Garden. The article also highlights the architectural features and educational role of the Mir Arab Madrasah. It focuses on Ubaydullah Khan's people-oriented policy and his significant role in the historical and cultural progress of Bukhara.

Index Terms: Ubaydullah Khan, Bukhara Khanate, Mir Arab Madrasah, Mehtar Qosim Bridge, Mirak Said Giyas Garden, science, architecture, culture, improvement, social progress.

Dolzarbligi:

Shayboniylar sulolasi hukmronligi davri – bu nafaqat siyosiy o'zgarishlar, balki madaniy va me'moriy yuksalish bilan ham xarakterlanuvchi bir bosqichdir[1:14]. Ushbu davrda Buxoro shahrining tarixiy qiyofasini belgilab bergan inshootlar bunyod etildi va ular bugungi kunga qadar O'zbekiston me'moriy merosining ajralmas qismini tashkil etadi.

Ubaydullaxon shaxsiyati va faoliyatini o'rganish bir qator sabablarga ko'ra dolzarbdir. Birinchidan, uning qisqa hukmronlik davri (1533-1540) me'morchilik va madaniyat sohasida katta miqyosli ishlar amalga oshirilgan davr sifatida alohida o'rin tutadi [2:18]. Ikkinchidan, Mir Arab madrasasi kabi inshootlar bugungi kunda YUNESCO tomonidan e'tirof etilgan Buxoroning tarixiy markazi tarkibida muhofaza qilinmoqda. Uchinchidan, Ubaydullaxonning bunyodkorlik siyosatini o'rganish o'rta asrlar O'rta Osiyo davlatchiligida hukmdorning madaniy-ma'naviy siyosatdagi rolini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi [8:65].

Zamonaviy O'zbekistonda milliy tarixiy meros va madaniy identitetni mustahkamlash borasidagi e'tibor kuchayib borayotgan sharoitda bunday tadqiqotlar amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Buxoroning tarixiy me'moriy obidalari turizm salohiyatini oshirishda va milliy o'zlikni anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi[3:45].

Mavzuning o'rganilganlik darajasi:

Ubaydullaxon davri va Buxoroning XVI asrdagi me'moriy rivojlanishi muammosi ilmiy adabiyotda turli darajada tadqiq etilgan. Mavzu bo'yicha tadqiqotlarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhni davriy tarixiy manbalar tashkil etadi. Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" asari Ubaydullaxon davri haqida eng muhim birlamchi manba hisoblanib, unda xonning bunyodkorlik ishlari, Mir Arab madrasasi va boshqa inshootlarning qurilishi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi [5:210]. Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri axbob" tazkirasi esa davr madaniy muhiti va Buxoro shahriga bo'lgan ehtiromni aks ettiruvchi manba sifatida o'ziga xos qimmatga ega [4:26].

Ikkinchi guruhni XX asr o'zbek va rus olimlarining ilmiy tadqiqotlari tashkil etadi. Q. Rajabovning Ubaydullaxonga bag'ishlangan maxsus risola [2:7] va Q. Rajabov, J. Inoyatovning "Buxoro tarixi" asari [3:38] mavzuning asosiy manba bazasini tashkil etadi. A. Nuriddinovning Mahdum A'zam Kosoniyga bag'ishlangan monografiyasi Naqshbandiya tariqatining o'sha davrdagi rolini tushunishda yordamchi asar bo'lib xizmat qiladi [1:9].

Uchinchisi guruhni arxitekturaviy va san'atshunoslik tadqiqotlari tashkil etadi [9:42]. Buxoroning tarixiy me'moriy yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlangan bir qator maxsus

ishlar nashr etilgan bo'lib, ularda Mir Arab madrasasining qurilish tarixi, me'moriy tuzilmasi va bezak san'atiga oid malumotlar batafsil berilgan[6:52].

Tadqiqot natijalari:

Ubaydullohon hukumronligi davrida Buxoroning siyosiy mavqeyi kuchaydi, iqtisodiy ahvoli yaxshilanib, madaniy jihatdan yana yuksaldi. Ilm-fan, adabiyot va san'at hunarmandchilik va dehqonchilik rivojiga alohida e'tibor qaratiladi, ko'plab obodonchilik va bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi, masjid madrasalar, xonaqohu yo'llar qurildi [7:58]. Ustozi va rahnamosi sharafiga bunyod etilgan mashhur Mir Arab madrasasi, Mirak Said G'iyos bog'i, Ko'hak daryosiga qurilgan Mehtar Qosim ko'prigi Ubaydullaxon davrining ko'zga ko'ringan obidalaridan hisoblanadi. Buxoro shahrinatrofiga yangi devor soldirib, katta chorbog'lar qurdirdi [2:14-15].

*Buxoro xushtar omad az tamomli shahro moro,
Zi chashmli bad higoh borad xudo mulki Buxoro*

Ya'ni: "Buxoro barcha shaharlardan ko'ra bizga sevimliroqdir, Xuvondi karimning o'zi Buxoroni yomon ko'zlardan asrasin!", - deb xabar beradi Hasanxo'ja Nisoriy [4:26-27]. Podsholikni xalqqa xizmat qilish deb bilgan Ubaydullohon Buxoro taxtiga o'tirishi bilanoq bu mansabdan xalq mamlakat uchun faqat yaxshilik qilish yo'lidangina foydalanishni maqsad etgani haqida bir g'azalida shunday yozgan edi:

*Ey Ubaydiy, xalq seni olamda qildi podshoh,
Sendin uldurkim, raiyatka rioyat qilasen.*

Mir Arab madrasasining qurilishiga homiylik qilgan Mir Arabning asl ismi Sayid Abdulla Yamaniy bo'lib, u 22 yoshida Samarqandga kelib Xo'ja Ahrorga shogirtlikka tushgan[1:14]. Turkistonning Sabronida 2 koriz ya'ni yer osti arig'i qazdirgan, suv chiqargan, qa'la bunyod ettirib, Shofirkon, Vobkent, G'ijduvonda ko'p joylarni obod qilgan [10:28]. Abdulla Yamaniy madrasani qurishni oxiriga yetkaza olmaydi, 1536-yil boshida vafot etgan va uni vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyoni qurilishini oxiriga yetkazgan. Xatot Mirali Fathobodiy – Buxoriy ushbu forsiy qit'ani Madrasa darvozasiga yozgan: "Mir Arab faxri Ajamonki kard- Madrasai oliy basbul ajab. Bul ajabon astki tarixi u: Madrasai oliy Mir Arab". Madrasa 1520-1536-yillarda qurilgan.

1512-yilda G'ijduvon yaqinida shayboniylarning Eron qo'shinlari ustidan g'alabasidan tushgan o'lja - mablag'ni Ubaydullohon o'z piri Mir Arabga madrasa bunyod etish uchun taqdim etgan[2:14].

Madrasaning umumiy tarxi 68.5*51.8 m., hovli 35.4*31.3 m., darsxona 8*8m. Hovlisi to'rtburchak bo'lib, atrofini oldi ravoqli, ikki oshyonli 114 hujra o'rab turadi [3:200]. Tomonlar o'rtasidagi 4 baland peshtoqli darsxona – ayvon hovli mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatdan naqshinkor janubiy peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi.

Fasadning o'rtasida birinchi bo'lib ko'zga tashlanadigan yirik peshtoq joylashtirilgan. Ichki hovli burchaklari kesilgan to'g'ri burchk shaklida bo'lib, uning atrofida ikki qavatli ayvonli hujralar joylashgan. Bosh fasad bo'lib peshtoqning o'ng va chap qanotida ikkita gumbazli zal joylashgan [6:74]. Bosh fasad burchaklarida vazmin kichik minora – "guldasta" tiklangan. Shu bilan birga xonalar biroz torroq va qorong'u bo'lgan. Hovlidagi bo'ylama va ko'ndalang devorlar bo'ylab joylashgan portallar ham go'zallik namunasi sifatida xizmat qilgan.

Umman olganda madrasa Sharq me'morchilik an'analarini "Chor" ulubida eshiklari xotamkori uslubda qurilgan. Mir Arab madrasai o'z davrida oliy ta'lim muassasi hisoblangan. Hozirda madrasada talabalar islom dinidan saboq oladilar. Sho'rolar davrida uning faoliyati vaqtincha to'xtatilgan, 1945-yilda yana tiklangan. O'quv muddati 4 yil bo'lib, 15 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotlilarni qabul qiladi.

Inshoot madrasa vazifasini bajaribgina qolmay, go'rxona bo'lib ham xizmat qiladi. Go'rxona ichi gumbaz osti bag'ali qalqonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch o'ymakorligida bezatilgan, izorasi rang-barang koshinli. Go'rxonada Ubaydullaxonning yog'ochdan xotamkori usulida ishlangan sag'anasi va Mir Arab uning qarindoshlarining qabrlari bor.

Ubaydullaxon davrining yana bir diqqatga sazovor me'moriy yodgorligi Mehtar Qosim ko'prigidir. Bu ko'prik Buxoro shahridan 22 km shimoli-sharqda, Buxoro – Samarqand magistral yo'li yaqinida, Ko'hak (Zarafshon) daryosining eski o'zanida barpo etilgan [3:200]. Xon saroyining nufuzli amaldorlaridan biri Mehtar Qosim shaxsiy mablag'lari hisobidan qurdirgan bu yirik g'isht ko'prik, o'sha davr savdo va siyosiy aloqalari uchun muhim infratuzilma inshooti jamiyatini bajargan. Ko'prik Abdullaxon II hukmronligi davrida va keyingi asrlarda ham bir necha bor ta'mirlanib, foydalanishda bo'lgan.

Ubaydullaxon bunyodkorlik faoliyatining ko'lamini ko'rsatuvchi yana bir muhim ob'ekt Mirak Said G'iyos bog'idir. Bu bog' xonning o'z qasri yaqinida barpo etilgan bo'lib, zamonasining namunaviy bog'-park ansambli hisoblangan [2:19]. Tashqaridan sipohlarga va aholining oddiy tabaqasiga mo'ljallanmagan bu xos bog', saroyga yaqin kishilar, ulamolar va mehmonlarni qabul qilish uchun xizmat qilgan.

Bundan tashqari, Ubaydullaxon o'z qasri ichida piri Hazrat uchun alohida maxsus hujra qurdirib bergan va tez-tez ul zotning muborak majlislarida ishtirok etib turgan [1:14]. Bu fakt hukmdorning diniy-ma'naviy yetakchilar bilan aloqasini nafaqat rasmiy, balki shaxsiy darajada ham saqlashga intilganini ko'rsatadi. Yuqoridagi tahlil asosida Ubaydullaxon davrida Buxoroda amalga oshirilgan me'moriy va madaniy bunyodkorlik siyosatining quyidagi xususiyatlarini ajratib o'rsatish mumkin.

Birinchidan, Ubaydullaxonning bunyodkorlik siyosati shaxsiy shuhrat istagi bilan emas, balki davlat manfaatlarini ko'zlagan dastur asosida amalga oshirilgan. Madrasa qurilishi ta'lim-ma'rifatni kuchaytirish, ko'prik qurilishi savdo yo'llarini rivojlantirish, bog' va qasrlar qurilishi esa shahar madaniy muhitini yuksaltirish uchun xizmat qilgan [5:215].

Ikkinchidan, Ubaydullaxon o'z bunyodkorlik siyosatida diniy-ma'naviy arboblarni faol jalb etgan. Mir Arab madrasasi qurilishi bu hamkorlikning eng yorqin namunasi bo'lib, unda xon siyosiy va moliyaviy resurslarni, Mir Arab esa diniy obro' va tashkiliy kuchni birlashtirgan [1:14]. Bu model keyingi davr Buxoro xonligi uchun ham namuna bo'lib xizmat qildi.

Uchinchidan, Ubaydullaxon davrida me'moriy an'analar davomiyligi ta'minlandi. Temuriylar davridagi yuksak me'moriy uslub va qurilish texnikasi Shayboniylar davrida ham saqlangan; Mir Arab madrasasi bunga yaqqol misol bo'lib, u O'rta Osiyo klassik me'morchiligining barcha asosiy elementlarini o'zida mujassam etgan [6:52].

To'rtinchidan, ushbu davr me'moriy obidalari Buxoroning tarixiy markazining YUNESCO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilishida (1993-yil) muhim asos bo'ldi. Bugungi kunda Mir Arab madrasasi, Minorai Kalon minorasi va Ko'kaldosh madrasasi bilan birga Buxoroning tarixiy qiyofasini belgilovchi asosiy inshootlar sifatida e'tirof etilmoqda [3:45].

Xulosa:

Ubaydullaxon hukmronligi (1533-1540) Buxoro xonligi tarixida qisqa, biroq samarali davr sifatida o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqot ko'rsatadiki, xonning bunyodkorlik va madaniy siyosati bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uchta asosiy yo'nalishda amalga oshirildi: me'moriy qurilish va shaharni obodonlashtirish; diniy-ma'rifiy muassasalar - madrasa va xonaqohlarni rivojlantirish, shahar atrofida bog'-park va infratuzilma inshootlarini barpo etish.

Mir Arab madrasasi – Ubaydullaxon davri bunyodkorligining eng ulug'vor timsolidir. Bu inshoot me'moriy jihatdan O'rta Osiyo klassik "chor ayvon" an'anasini davom ettirib, bir vaqtning o'zida ta'lim markazi, go'rxona va diniy-ma'naviy faoliyat maskaniga aylandi. Madrasaning bugungi kunda ham faoliyat ko'rsatishi uning tarixiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Mehtar Qosim ko'prigi va Mirak Said G'iyos bog'i esa Ubaydullaxon davrida nafaqat saroy me'morchiligi, balki amaliy infratuzilma inshootlariga ham e'tibor berilganini ko'rsatadi. Bu holat hukmdorning xalqparvar siyosatini - shoirona ifodasi bilan "raiylatka rioyat qilish" tamoyilini - amalda qo'llash istagi bilan bevosita bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, Ubaydullaxon Buxoro tarixida nafaqat harbiy g'alabalar qozongan sarkarda va tajribali davlat arbobi sifatida emas, balki shaharga me'moriy go'zallik va madaniy yuksalish baxsh etgan bunyodkor hukmdor sifatida ham munosib o'rin egallaydi. Uning davri Buxoroni Movarounnahrning yetakchi madaniy markaziga aylantirishda muhim poydevor bo'ldi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Nuriddinov A. Mahdum A'zam Kosoniy. – T.: Fan, 2008. – 224 b.
2. Rajabov Q. Ubaydullohon (risola). – Toshkent, 2011. – 30 b.
3. Rajabov Q. Inoyatov C. Buxoro tarixi. – T.: Tafakkur, 2016. – 340 b.
4. Xasanho'ja Nisoriy. Muzakkiri axbob. – T: Meros, 1993. – 150 b.
5. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. – Toshkent: Sharq, 2023. – 414 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 368 b.
7. Ахмедов Б.А. История Бухары с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Фан, 1982. – 224 с.
8. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 260 b.
9. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1958. – 292 с.
10. Erkayeva M. Ubaydullaxon I davrida Buxoro xonligi. // "PEDAGOGS" International Research Journal. Volume-83. – 2025. – B. 104–110.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000